

MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(Tog'ay Murod qissalari misolida)

Kobilov Nomoz O'rolovich,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU akademik litseyi

Gumanitar fanlar kafedrasи mudiri filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

nomozkobilov@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari Tog'ay Murodning qissalari misolida o'rGANILADI. Maqollarning milliy tafakkur, qadriyatlar, mentalitet va urf-odatlar ifodasidagi roli yoritiladi. Tog'ay Murod qissalarida xalq maqollaridan foydalanish holatlari tahlil qilinib, ular orqali yozuvchining milliy madaniyatni qanday aks ettirgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqollar tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Xalq maqollari, lingvokulturologiya, milliy tafakkur, maqolning badiiy funksiyasi, mentalitet, adabiy tahlil.

DEYİMLERİN LİNGVOKÜLTÜROLOJİK ÖZELLİKLERİ
(Togay Murad'in hikâyeleri örneğinde)

Kobilov Nomoz O'rolovich,

Şarof Raşidov adındaki Semerkand devlet üniversitesi akademik lisesi beseri bilimler bölümü başkanı, filoloji bilimleri doktoru (PhD)

Özet. Bu makalede, Özbek halk deyimlerinin lingvokültürolojik özelliklerini Togay Murad'in hikâyeleri örneğinde incelenmektedir. Deyimlerin milli düşünce, değerler, zihniyet ve geleneklerin ifadesindeki rolü ele alınmaktadır. Togay Murad'in hikâyelerinde halk deyimlerinin kullanım durumları analiz edilmekte ve yazının bu deyimler aracılığıyla milli kültürü nasıl yansıtıldığını ortaya konmaktadır. Ayrıca deyimler, dilbilimsel ve kültürel bakış açısıyla değerlendirilmiştir.

Anahtar kelimeler. Halk deyimleri, lingvokültüroloji, milli düşünce, deyimlerin edebi işlevi, zihniyet, edebi analiz.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ
(на примере повестей Тогая Мурода)

Kobilov Nomoz O'rolovich,

Заведующий кафедрой гуманитарных наук академического лицея при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова, доктор философии (PhD) по филологическим наукам.

Аннотация. В данной статье изучаются лингвокультурологические особенности узбекских народных поговорок на примере рассказов Тогай Мурод. Освещается роль поговорок в формировании национального мышления, ценностей, менталитета и обычаев. Анализируются случаи использования народных поговорок в произведениях Тогай Мурод, через которые демонстрируется, как автор отражает национальную культуру. Кроме того, поговорки анализируются с точки зрения лингвистики и культурологии.

Ключевые слова. Народные пословицы, лингвокультурология, национальное мышление, художественная функция пословицы, менталитет, литературный анализ.

LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF PROVERBS
(On the example of Toghay Murad's stories)

Kobilov Nomoz O'rolovich,
*head of the Department of humanities at the academic lyceum of
Samarkand state university named after Sharof Rashidov,
doctor of philosophy (PhD) in philological sciences*

Abstract. This article explores the linguoculturological features of Uzbek folk proverbs through the example of Toghay Murad's stories. The role of proverbs in expressing national thinking, values, mentality, and traditions is highlighted. The usage of folk proverbs in Toghay Murad's narratives is analyzed to show how the writer reflects national culture through them. Furthermore, the proverbs are examined from linguistic and cultural perspectives.

Keywords. Folk proverbs, linguoculturology, national thinking, artistic function of proverbs, mentality, literary analysis.

Ma'lumki, har bir til o'z nafisligini, eng avvalo, xalq og'zaki ijodi janrlarida aks ettiradi. Og'zaki ijodda xalq topqirligini o'zida aks ettirgan tilning go'zal namunalari jamlangan bo'ladi. Og'zaki ijodining muhim bir bog'ini bo'lgan xalq maqollarida tilning barcha qatlamlari umumlashgan. Chunki "... maqollar xalq hayotini, uning o'tmishdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy turmush darajasini o'rganishda noyob manba bo'lib xizmat qiladilar. Bu narsa turli ijtimoiy munosabatlarning xalqning axloqiy me'yorlari va e'tiqodlarining, maishiy turmushi va mehnati, sevgisi va nafrati, ozod hayot uchun intilishlarining obyekti, ixcham va lo'nda aks etganligida ko'rindi" [O'zbek..., 1987: 18]. "O'zbek tilining izohli lug'ati'da shunday ta'rif berilgan: «Maqol [أقل - maqol, kichik asar; so'z, nutql]. Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap» [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006: 569.]. Tabiiyki, Maqol jahon xalqlari og'zaki ijodining mumtoz janrlaridan biri bo'lib, unda xalqning ko'p asrlik tarixi, turmush tarzi, milliy madaniyati, etnografiyasi, orzu-istiklari, dunyoqarashi, o'y-fikrlari, tilining misqollab yig'ilgan boyligi tamg'alangan bo'ladi. Xalq maqollarida kishilikning turmush tajribalari asosida chiqargan falsafiy xulosalari ixcham va lo'nda shaklda ifoda etilgan. Ularni qadimgi xalq poetik tafakkurining, ota-bobolar donishmandligining beباho merosi, til tarixinining takrorlanmas yodgorligi desa bo'ladi [Mirzaaliyev, 2020: 5]. Shu bois xalq maqollarida xalq hayotini to'lasincha o'zida aks ettirganligi bois ularning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Lingvokulturologiya insonga xos madaniylikni nutq va diskursda yuzaga chiqishi barobarida olamning milliy manzarasi, lisoniy ong, mental-lisoniy majmuuning xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi fandir. Shu bois ham, unda inson mentallitetini aks ettiruvchi jarayonlar yetakchilik qilishi shubhasizdir.

Kognitiv psixologiya bilan shug'ullanuvchi olimlarning qayd etishicha, inson miyasining tuzilish jarayoni turli fanlarning integrasiyasi orqali takomillashib borganligi bois ular sun'iy tafakkur bilan o'zaro zinch aloqada bo'lib, "tafakkur – axborotni qayta ishlash vositasi sifatida"gi ta'rif shakllangan [Alfirenko, 2010: 46].

Oqin ijodkor asarlari tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, u har bir xalq maqolini o'z o'rniда qo'llashga harakat qilgan. E'tiboringizni asardan olingan quyidagi parchaga qaratamiz:

"Onamiz tap-taqir kallamni ushlab ko'rdi. Ich-ichidan kuydi. Aytib-aytib kuydi.

-Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi, degani shu-da, -dedi" (Ot kishnagan oqshom, 7).

Bu parchada adib asar qahramoni hayotidagi qiyinchiliklar yetmay turganda, uning boshiga og'ir kulfat tushganligini kuchliroq ifodalash maqsadida mazkur maqoldan unumli foydalangan.

Shu bilan birga, adib mazkur qissada hududning o'ziga tabiat, mentaliteti singari xususiyatlarini ifodalab beruvchi maqollardan ham unumli foydalanganadi.

"Ot olsang, Oboqlidan ol, ayol olsang, Irg'alidan ol (o'sha asar, 12)",

ho'kiz qorindan ol, ho'kiz olsang ot qorindan ol(o'sha asar,13)", "Oti borning – qanoti bor (o'sha asar,13)".

Shevaga xos maqollarni adabiy tilga xos maqollar bilan hamohang tarzda qo'llab personaj nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadini quyidagicha amalga oshirgan:

"Bildim, el, Ziyodulla kal, otangni ko'rdim – ahmadi forig', onangni ko'rdim – tovoni yoriq, ko'rpannga qarab oyoq uzat, dedi. O'zing bir sag'ir bo'lsang, senga kim qo'yibdi otni, dedi. Yana tag'in kal bo'lsang, kalga nimam, dedi. Kalga eshak ham bo'ladi, dedi"(o'sha asar,15).

"Chavondoz qanoti bo'lgan otning yigitga, egasiga do'stligini "Birodarlar, ot usti behisht, og'zi do'zax!" (o'sha asar, 23), "Birodarlar, eshak yiqitsa, tuyog'ini to'shaydi, ot yiqitsa, yolini to'shaydi!" (o'sha asar, 40) singari maqollar ishtirot etgan jumlalar orqali ishonarli tarzda tasvirlab berishga erishgan.

Asarda xalqona ohang ta'sirida qishloqda axborotning xalq ichiga tez tarqalishini quyidagicha tasvirlaydi: "Birodarlar, yomon gap, raketadan oldin yuradi, yaxshi gap, toshbaqadan keyin yuradi!" (o'sha asar, 153). "Elga bir gap tegmasin. Chibinday gapni tuyaday qilib gapiradi. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Endi bor gapni aytayin..." (o'sha asar, 153).

Adib maqollar uchun asos bo'lgan birliklarning aslida rivoyatlardan chiqarilgan xulosa – hikmatlar ekanligiga ishora qilib, ular asta-sekinlik bilan ixchamlashib, siqiq holga kelganligini inobatga olgan holda o'rni bilan asar mazmunini ifodalovchi vosita sifatida foydalanganligi alohida qayd etish lozim bo'ladi.

" - O'zi so'radi. O'zi dir-dir qaltiraydi, botinkasini botinkasiga uradi. G'irt mast! Hojiquylboy ham bopladi! Hurmat qilgan bo'lib, bir eshakday otni o'ngladi. Siz kattasiz, yaqinroqdan borib ko'pkarini nazorat qilib turing, dedi. Bechora ishonib, ko'pkariga rahbarlik qilgani keldi.

- Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi ..." (o'sha asar,137).

Ushbu maqol zamirida qadimda bir amaldor ustidan shikoyatlar ko'payib ketib, mansabidan ayrilgach, otni topshirgach, uning egar-abzalini o'zi bilan olib qoladi. U har kuni egarning ustiga minib, uydagilarga amaldorlarga xos buyruq ohangidagi so'zlar bilan murojaat qilishni kanda qilmaydi. Bundan xabar topgan qo'shnilar faloncha otdan (amaldan) tushsa ham egardan tushmabdi, degan xulosa chiqarishgan ekan.

Shuningdek, qissada "Birodarlar, kuygan – o'lanchi bo'ladi, suygan –laparchi bo'ladi?", "Haq saqlasa balo yo'q, Haq qarg'asa davo yo'q! „, „Kal o'zini ovutar - qo'ltig'inisovutar”, „Otni suvga olib borib, quruq qaytarib kelish bo'ladi” singari maqollarning ham lingvokulturologik xususiyatlari ham yoritilgan.

Lingvistika taraqqiyotining hozirgi davriga qadar tilning ijtimoiy hodisa ekanligi va jamiyat taraqqiyotida uning mavqyei masalasi mukammal tavsif etildi. Mazkur masala nafaqat tilshunoslar tomonidan, balki faylasuflar, tarixchilar, etnograf mutaxassislar, psixologlar tomonidan ham o'rganildi. Matn bu jumlalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan-bir manbadir. So'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi makon vazifasini bajaradi. Matn bu so'zlovchining nutqiy faoliyati mahsulidir. U til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funksiya bajaruvchi eng yuqori pag'onasidir.

M.V.Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim faktorlardan biri ekanligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba ekanligini ham to'g'ri ta'kidlaydi. «Inson omili, - deydi u, - hozirgi tilshunoslikning e'tibori markazida bo'lib, pragmatika, semantika, sintaksis dasturining hayotga tadbiq etilishida muhim mavqeyiga egadir» [N.Turniyozov, 2004: 68].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Tog'ay Murod ijodida milliy ruh, xalqona tafakkur va madaniy qadriyatlar yorqin aks etgan bo'lib, bu jihatlar ayniqsa maqollardan foydalananishda yaqqol namoyon bo'ladi. Uning qissalarida keltirilgan maqollar xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va urf-odatlarini ifodalovchi muhim lingvokulturologik vosita sifatida xizmat qiladi. Maqollar nafaqat obrazlarning nutqini jonlantiradi, balki matnning estetik va semantik qatlamlarini boyitadi. Oqin ijodkor asarlarida maqollar orqali xalq donishmandligi, hayot falsafasi va madaniy merosi o'ziga xos badiiy uslubda ifoda topgan. Shunday qilib, maqollar yozuvchining

lingvokulturologik mahoratini namoyon etish bilan birga, o'zbek milliy tafakkurining ajralmas bo'lagiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alefirenko N. F. Lingvokulturologiya: sennostno-smislovoye prostranstvo yazika. Uchebnoye posobiye. – Moskva: Nauka, 2010.- 43 b.
2. Mirzaaliyev I. M. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi («Devonu lug'ati-turk» materiali misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.-5 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Ikkinci jild. Ye-M. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.- 569 b.
4. O'zbek xalq maqollari. Ikki jildlik. 1-jild. – Toshkent, 1987.- 18 b.
5. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati, 2008.- 137-153 b.
6. Turniyozov N. Matn lingvistikasi. – Samarqand, 2004.- 43 b.